
MAHALLADA NAVRO‘Z SHUKUHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023 yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Toshloq tumanida ham barcha mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Navro‘zi olam oldidan tumandagi mahallalarda turli bayram tadbirlari, sumalak sayllari yuqori ko‘tarinkilik bilan o‘tkazilmoqda.

Kuni-kecha 2-sektor hududidagi Zarkent MFYda yurtdoshlarimiz qalbida shukronalik ila sumalak tayyorlandi. Tuman madaniyat bo‘limi san‘atkorlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar barchaga xushnudlik, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

2023-03-09 16:25:28